

**MAKTABGACHA TA'LIMNI SIFAT JIHATDAN
TAKOMILLASHTIRISHDA TARBIYACHINING
PEDAGOGIK MAHORATI**

N.M. Kayumova

dotsent

Nizami nomidagi TDPU

E-mail: kayumovanargiza71@gmail.com

M.R. Turg'unova

“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi
va psixologiyasi”yo'nalishi talabasi:

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirishda tarbiyachining pedagogik mahoratini takomillashtirish mazmuni ifodalangan.

Kalit so'zlar: pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat, mimika pantomimika, pedagogik texnika, pedagogic vaziyat, yangilanish.

Abstract: The content of improving the teacher's pedagogical skills in quality improvement of preschool education is expressed in the article.

Key words: pedagogical ability, pedagogical skill, mime, pantomime, pedagogical technique, pedagogical situation, renewal

Аннотация: В статье выражено содержание повышения педагогического мастерства педагога в повышении качества дошкольного образования.

Ключевые слова: педагогическое умение, педагогическое мастерство, пантомима, пантомима, педагогический прием, педагогическая ситуация, обновление.

Maktabgacha ta’limni sifat jihatdan takomillashtirish unga qo‘yilgan talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, mazkur ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini mazmun jihatdan boyitishni talab qilmoqda. Chunki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o‘zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o‘ziga va o‘z ishiga nisbatan talabchan, maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan ota-onalar hamkorligini yo‘lga qo‘ya oladigan, o‘z ishining ustasi bo‘lgan, o‘z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi hamda o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la ishga sola biladigan maktabgacha ta’lim pedagoglariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma’suliyatli vazifalarni bajaradi. Ustozning eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashidir. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajaradi.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga etkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Ma’lumki, ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi-tarbiyachilar tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, bolalarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi,

bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Tarbiyachi kasbiga xos bo‘lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo‘la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va engil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg‘otadi, o‘qituvchiga bolalarni chinakam ma’naviy murabbiysi bo‘lishga imkon beradi. Kreativlik – keng ma’noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma’naviy olamini insonning maqsad va vazifalariga uning istaklari ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o‘zgartirish borasidagi bunyodkor faoliyati tushuniladi. Kreativlik bu- shakllangan streotiplar, odatlar, an’anlar shartliliklar doirasidan ongli ravishda chiqish demakdir. Maktabgacha yoshdagi bolani o‘zining shaxsiyatini qo‘llab-quvvatlash, bolaning manfaatlari va ehtiyojlarini hurmat qilish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida bolalarni kelajak hayotiga tayyorlashda muhim hisoblanadi. Zamonaviy maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish samarali, malakali va professional darajada samarali boshqaruvni ta’minlaydi. Maktabgacha ta’limni sifat jihatdan takomillashtirishga qo‘yilayotgan talablar sirasiga: pedagogik jarayonlarda bo‘lajak pedagoglarni shaxslararo muloqotga tayyorlash, sub’ekt-sub’ekt munosabatlariga kirishish; kompetensiyaviy diagnostika; maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishga oid bilimlar bilan qurollantirish; ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish; maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishga oid zamonaviy yondashuvlarni egallashlariga sharoit yaratish va maktabgacha ta’lim muassasalarini muntazam takomillashtirish hamda modernizatsiya qilish zamon talablaridan biri hisoblanmoqda. Shu yo‘l bilan nafaqat maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishidagi muammolarni, balki bo‘lajak pedagoglarni interfaol usullarni o‘zlashtirishlarini ham ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Терехова, О. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ–РЕЗУЛЬТАТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(23), 17-20.
2. Жўраева, Н. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ СИФАТИ ИНДИКАТОРЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ МАЗМУНИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 491-493.
3. Sabirovna, A. G. (2022). Formation of Self-Estimation in Preschool Children. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 3, 6-8.
4. Махмудова, Д.М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(6), 274-278.
5. Каюмова, Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организatsии. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107)
6. Nurbaeva, I. T. (2022, November). Models of pedagogical communication in the educational process. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (vol. 1, no. 3, pp. 88-95).